

Ekologik xavfsizlik va nazorat – doimiy e'tiborda!

// 04.05.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ekologik-xavfsizlik-va-nazorat-doimiy-e-tiborda>



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy tadbirlar rejasiga muvofiq, bugun "Ammofos-Maxam" AJ hududida ekologik monitoring ishlari amalga oshirildi.

Mazkur tadbirda Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi, viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari boshqarmasi mutaxassislari ishtirok etdi.



Monitoring jarayonida atrof-muhit holati, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik talablarga muvofiqligi hamda sanitariya me'yorlariga rioya etilishi o'rganildi. Mazkur tadbir ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olishga qaratilgan.



"Ammofos-Maxam" AJ Matbuot xizmati